

FORS TILIDA OTNING TARKIBIY TASNIFI

Rahmatulloyev Ahtam A'zam o'g'li¹

¹ Termiz davlat universiteti, uchinchi bosqich tayanch doktoranti.

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.05.2024

Revised: 21.05.2024

Accepted: 22.05.2024

Ushbu maqolada ot so'z turkumining tarkibiy jihatdan fors tilida qanday tasniflanishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Fors tilshunos olimlari bilan birgalikda rus eronshunosligi vakillarining ham fors tilida otning semantik tasnifi haqida aytgan fikrlari o'rganildi va xulosalar bildirildi.

KALIT SO'ZLAR:

Fors tili, ot,
grammatika,
tilshunoslik, tarkibiy,
Parviz Notili Xonlariy,
Mahdiy Mu'iniyon,
Muhammad Javod
Mashkur, Ahmadi
Ahmadiy, Yu.A.
Rubinchik.

KIRISH. Boshqa tillarda kuzatilganidek fors tilida ham ot so'z turkumi semantik hamda tarkibiy tasnif qilinadi. Tarkibiy jihatidan tasnif qilishda bir qancha tilshunos olimlarning fikr mulohazalariga tayanamiz. Fors olimi Parviz Notili Xonlariy otni tarkibiy tasniflashda quyidagicha to'xtalib o'tgan:

اسم یا صفتی را که دارای اجزای مستقل نباشد “ساده” میخوانیم⁸.

“Esm yā sefatiro ke dārāe ajzāe mostaqel nabāšad “sāde” mixānim”. “Mustaqil qismga ega bo'lgan ot va sifatni “sodda” deb nomlaymiz”.

هر گاه اسم یا صفتی دارای دو جزء یا بیشتر باشد که هر یک جداگانه دارای معنی باشند کلمه “مرکب” خوانده می شود. کلمه مرکب گاهی از دو اسم حاصل می شود.⁹

“Har gāh esm yā sefati dārāi du juz' yā bištar bāšad ke har yek jodāgāne dārāe ma'ni bāšad kalime “morakkab” xānde mišavad. Kalimee morakkab gāhi az du esm hāsel mišavad”.

“Ot yo sifat bo'lgan so'zlar qachonki alohida ma'noni anglatadigan ikki yoki undan ortiq qismdan iborat bo'lsa, qo'shma so'z deb ataladi. Qo'shma so'z ba'zida ikki otdan yasaladi.”

⁸ دکتر پرویز ناتل خانلری. دستور زبان فارسی. تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران. ۱۶۱ ص.

⁹ O'sha manba, 141 b.

Boshqa o'rinda eronlik yana bir tilshunos olim Mahdiy Mu'iniyon o'tning struktur jihatdan quyidagi shakllarini keltirib o'tgan.

اسم ساده اسمی است که دارای یک جز باشد و نتوانیم قسمتی از آن را جدا کرده و در جای دیگری بکار ببریم
مانند: حسن، کتاب، قلم، مرد، زن.¹⁰

“Esme sode esmi ast ke dārāe yek joz’ bāšad va natavānim qesmati az ānrā jodā karde va dar jāye digari be kār barim mānande: **Hasan, ketāb, qalam, mard, zan.**”

“Sodda ot bir qismdan iboratdir, uning bir qismi alohidalikda ma’no anglatmaydi: Hasan, kitob, qalam, erkak, ayol.”

اسم مرکب اسمی است که بیش از یک جز داشته باشد و بتوانیم حد اقل یک جزء آن را در جای دیگری به کار ببریم مانند: روزنامه، کتابخانه، دانشسرا، آهوبره، بچه گریه...¹¹

Esme morakkab esmi ast ke biš az yek joz’ dāšte bāšad va betavānim haddeaqal yek joz’e ānrā dar jāye digari be barim mānande: ruznāme, ketābxāne, dānešsarā, āhubače, bačegorbe...

“Qo’shma ot ikki qismdan iboratdir va uning har bir qismi alohidalikda ma’no anglata oladi: **ruz-nome** (gazeta) ruz-kun, nome-xat, **ketāb-xāne** (kutubxona) ketāb-kitob, xāne-uy...

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek qo’shma otlar ikki mustaqil qismdan tashkil topib, har ikkala qismi ham mustaqil ma’noga egadir. Lekin ba’zi bir hollarda qo’shma otlar mustaqil va mustaqil bo’lmagan qismlardan ham tashkil topadi. Qo’shma otning ma’noga ega qismi asos va ma’noga ega bo’lmagan qismi esa so’z yasovchi qo’shimcha hisoblanadi.

Muhammad Javod Mashkur soda otga quyidagicha ta’rif berib o’tadi: اسم ساده آنست که تنها یک کلمه باشد، مانند: مرغ، پرده، زمین، خانه.¹²

“Esme sāde ān ast ke tanhā yek kalime bāšad, mānande: **morq, parde, zamin, xāne**”.

Soda otlar bir so’zdaan iborat bo’ladi: **morq-tovuq, parde-parda, zamin-yer, xāne-uy.**

اسم مرکب، آنستکه از دو کلمه یا بیشتر آمیخته باشد، مانند: کاروانسرا، سراینده، کارخانه، چهارراه، کتابخانه.¹³

“Esme morakkab ān ast ke az du kalime yā bištar āmixte bāšad, mānande: karvānsarā, sarāyande, kārkhāne, čahārrāh, ketābxāne”.

Qo’shma ot deb bir so’zdan iborat bo’lgan emas balki undan ko’proq so’zdan tashkil topgan otga aytiladi: karvānsarā-mehmonxona, sarāyande-qo’shiqchi, kārkhāne-korxona, čahārrāh-chorraha, ketābxāne-kitobxona.

Shu o'rinda Hasan Ahmadi Giviy hamda Hasan Anvariylarning otning tarkibiy tuzilishi haqidagi fikrlariga ham to'xtalib o'tsak.

اسمرا از حیث ساختمان به ساده و مرکب تقسیم می کنند:

¹⁰ مهدی معینیان. دستور زبان فارسی. تهران: ۴۵ ص.

¹¹ مهدی معینیان. دستور زبان فارسی. تهران: ۴۵ ص.

¹² مهمد جواد مشکور. دستورنامه. در صرف و نحو زبان پارسی. تهران: ۲۰ ص.

¹³ O'sha manba. 21 b.

اسم گاهی دارای یک تکواژ است و نمی توان آن را به دو بخش یا بیشتر تقسیم کرد، به عبارت دیگر در اصل، از دو بخش بیشتر ترکیب نشده است، در این صورت آن را ساده یا بسیت گویند؛ مانند قلم، سر، کتاب؛ و گاهی از دو بخش یا بیشتر ترکیب یافته است؛ در این صورت، آن را مرکب نامند؛ چون: قلمدان، سربازخانه، کتابشناسی¹⁴.

Esmro az hayse sāxtemān be sāde va morakkab taqsim mikonand:

Esm gāhi dārāye yek tekvāj ast va namitavān ānrā be du baxš yā bištar taqsim kard, be ebārate digar dar asl, az du baxš bištar tarkib našode ast, dar in surat ānrā sāde yā basit guyand: mānande qalam, sar, ketāb, va gāhi az du baxš yā bištar tarkib yāfte ast: dar in surat, ānrā morakkab nāmand: čun: qalamdān, sarbāzxāne, ketābšenāsi.

“Ot ba’zida bir so’zdan tashkil topgan bo’ladi va uni qismlarga bo’la olmaymiz ushbu holda bu turdagi otni **sodda** ot deb ataymiz: qalam-qalam, sar-sar, ketāb-kitob. Ba’zida esa ikki va undan ortiq qismdan tashkil topgan otlarni qo’shma ot deb ataymiz: qalamdān-qalamdon, ketābšenāsi-kitobshunoslik.”

برخی، اسم را از حیث ساختار سه دسته می شمارند و واژه هایی که یکی از وندها (پیشوند، میانوند، پسوند) را دارند مشتق می نامند به صورت زیر:

1. ساده: کتاب، دست
2. مرکب: کتابخانه، دست آش
3. مشتق: مرزبان، دبیرستان¹⁵

Barxi esmrā az hayse sāxtemān se daste mišomārand va vājahāyi ke yeki az vandhā (pišvand, miyānvand, pasvand) rā dārand moštaq mināmand be surate zir:

1. Sāde: ketāb, dast
2. Morakkab: ketāxāne, dastāš
3. Moštaq: marzbān, dabirestān.

“Ba’zi olimlar otni yasalish jihatidan uch guruhga bo’ladilar va qo’shimchalar (old qo’shimcha, o’rta qo’shimcha, ort qo’shimcha) dan biriga ega bo’lgan otni yasama ot deb atashgan, quyidagicha:

1. Sodda: kitob, qo’l
2. Qo’sma: kibxona
3. Yasama: chegarachi.”

Umuman olganda fors tilida otning yasalish jihatidan tasnifi turli xil hisoblanadi. Muhammad Javod Shariat, Mustafo Muqrabiy, Mahdiy Mu’iniyon, Parviz Notili Xonlariy va boshqa bir qator olimlar otni yasalish jihatidan ikki turga, sodda va qo’shmaga bo’lib o’rganish fikrini ilgari surgan bo’lsa, Xatib Rahbar otni sodda, qo’shma va yasama turlarga

¹⁴حسن احمدی گیوی و حسن انوری. دستور زبان فارسی. انتشارات فاطمی. تهران: ۷۵ ص.

¹⁵حسن احمدی گیوی و حسن انوری. دستور زبان فارسی. انتشارات فاطمی. تهران: ۷۶ ص.

bo‘lib o‘rgangan. Taqiy Vahidiyon Komyor va Mahmud Mehrovaron otni sodda, qo‘shma, yasama va yasama-qo‘shma turlarga bo‘lib o‘rganish fikrini ilgari surishgan¹⁶.

Tadqiqotlar va tilshunos olimlarning fikrlari hamda misollarini o‘rganib shuni ayta olamizki fors tilida otning yasaliş jihatidan asosan uch turi sodda, qo‘shma va yasama turlari ko‘proq uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azim Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 165 b.
2. دکتر پرویز نائل خانلری. دستور زبان فارسی. تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران. ۳۶۷ ص.
3. مهدی معینیان. دستور زبان فارسی. تهران: ۲۸۸ ص.
4. مهرداد مشکور. دستورنامه. در صرف و نحو زبان پارسی. تهران: ۳۸۳ ص.
5. احمداحمدی. دستور زبان فارسی یا صرف و نحو. تهران: چاپ خانه احمدی. ۳۱۹ ص.
6. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Восточная литература, 2001. – 600 с.
7. Rahmatulloyev A. A. “GULISTON” TARJIMASIDA KELGAN QO ‘SHMA OTLAR TAHLILI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 17.

¹⁶دکتر پرویز نائل خانلری. دستور زبان فارسی. تهران: انتشارات بنیاد فرهنگ ایران. ۳۶۷ ص. مهدی معینیان. دستور زبان فارسی. تهران: ۲۸۸ ص. شریعت، محجواد (1372). دستور زبان فارسی، اساطیر. مقربی، مصطفی (1372). ترکیب در زبان فارسی، چ 1، توس. خطیب رهبر، خلیل (1381). دستور زبان فارسی برای پژوهش دانشجویان و ادب‌دوستان در آثار شاعران و نویسندگان بزرگ ایران، چ 1، مهتاب. وحیدیان کامیار، تقی (1399). دستور زبان فارسی (1)، با همکاری غلامرضا عمرانی، چ 20، تهران: سمت. مهرآوران، محمود (1399). سامان سخن، چ 4، مرکز بین‌المللی ترجمه و نشر المصطفی.